

YURT QAYG'USI BILAN YASHAGAN FAYZULLA XO'JA

Annotatsiya. Maqolada butun umri davomida o'z ona vatanini ozod va obod qilish dardi bilan yashagan buyuk olim Fayzulla Xo'jaevning ta'limda qo'shgan hissasi, Jadidlarning orzulari haqida so'z yuritiladi.

Kakit so'zlar: jadidlar, musiqa, maqom, ta'lim, tarbiya, shashmaqom, istiqloqlol

ФАЙЗУЛЛА ХОДЖА, КОТОРЫЙ ЖИЛ С ГОРЕМ НА ЗЕМЛЕ

Аннотация. В статье говорится о вкладе великого энциклопедиста, Файзулла Хўжаева прожившего всю свою жизнь с болью освобождения и улучшения своей родины, образовании, воспоминаниях, мечтах жадидов.

Ключевые слова: Джадиды, музыка, статус, образование, обучение, шашмакам, истикиляль.

FAIZULLA KHOJA, WHO LIVED WITH THE SORROW OF THE LAND

Annotation. The article talks about the contribution of the great encyclopedist Fayzulla Xo'jaev, who lived his entire life with the pain of liberation and improvement of his homeland, and education, and the dreams of the jadids.

Key words: Jadids, status, education, training, shashmakam, istiqilal.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, dini, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Har qaysi mamlakat, har bir xalqning o'ziga xos bo'lgan uzoq va betakror tarixi bo'lgani kabi ona Vatanimiz O'zbekistonning ham, o'zbek xalqining ham boy va sarmazmun tarixi mavjuddir. O'tmishda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan ona zaminimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko'ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoga mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng to'liqlik, shiddatli chorralardan biri bo'lib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma'lum darajada aralashuvi sodir bo'lib, ularning madaniyati, tili, dini, fani, san'ati, turmush tarzi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kunga kelib Vatanimiz O'zbekiston nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. O'zbek xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bo'lib, hozirgi O'zbekiston hududida ilk mustaqil davlat tuzilmalari, miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3 ming yil mobaynida takomillashib borgan va Dunyo davlatchiligi 5 ravnaqiga eng yuksak darajaga ko'tarilganligi butun dunyoga ma'lumdur. Bundan qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fuzalolar, olimu-ulamalar, siyosatchilar, sarkardalar, vatanparvar jadidlari yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Xuddi shunday yurt qayg'usi bilan yashagan vatan jadidlarimizdan biri vatan doshimiz Fayzulla Ubaydullayevich Xo'jayevdir (1896-1938-yillar) u shu qisqa umri davomida o'z ona yurti ravnaqi uchun xavas qilsa arziguli ko'pgina o'zining beminnat xizmatlarini qo'shgan. U Atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisilaridan biri, Yosh buxoroliklar partiyasining rahbarlari. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi. Shuningdek, keyinchalik O'zbekiston SSRning rahbarlaridan biri bo'lgan.

Buxoroda savdogar oilasida tugʻilgan Fayzulla Ubaydullayevich Buxoro madrasasida 2 yil tahsil olgach, 1907—1912-yillarda Moskvada xususiy maktabda oʻqigan. Buxoroga qaytgach, 1912-yildan „Yosh buxoroliklar“ partiyasining, 1913-yildan partiya Markaziy Qoʻmitasining aʼzosi boʻldi. Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, „Yosh buxoroliklar“ siyosiy faoliyatini moddiy qoʻllab-quvvatlashga sarfladi. 1917-yildan boshlab Fayzulla Xoʻjayev va Fitrat partiyaning soʻl qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, soʻngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. „Yosh buxoroliklar“ Buxoro amiri tomonidan taʼqib qilingach, Xoʻjayev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur boʻlishdi.

Xoʻjayev 1920-yil yanvarda Toshkentda tuzilgan inqilobchi „Yosh buxoroliklar“ partiyasi Turkiston Markaziy byurosi raisi, „Uchqun“ gazetasining muharriri (1920-yil aprel-sentabr). 1920-yil 14 sentabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati Xalq Nozirlar Shoʻrosi tuzilib, Xoʻjayev hukumat boshligʻi qilib saylandi. BXSР tashqi ishlar noziri (1920-22), harbiy ishlar noziri (1921-24), ichki ishlar noziri (1922), BXSР Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922-24). Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923-24), SSSR Harbiy Dengiz ishlari xalq komissarligining Oʻzbekiston SSR boʻyicha rasmiy vakili (1925-yildan).

Xoʻjayev Fayzulla Ubaydullayevich faoliyati BXSРning mustaqil ichki va tashki siyosat yuritishiga, iqtisodiy islohotlar oʻtkazish va demokratik erkinliklarni joriy kilishga alohida eʼtibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afgʻoniston, Xitoy, Ozarbayjon, Xorazm Xalq Sovet

Respublikasi, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatikaloqalar oʻrnatgan. U talabalarni xorijga joʻnatib oʻqitishning tashabbuskorlaridan biri boʻlgan. Oʻzbekiston SSR Inqilobiy qoʻmitasi (Revkom) – Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi (1924-yil noyabr – 1925-yil fevral), OʻzSSR XKS raisi (1925-1937), SSSR MIQ raislaridan biri.

Xoʻjayev oʻz faoliyati davomida oʻzbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. Oʻzbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. Oʻzbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor boʻlgan.

Chex adibi Egon Ervin Kish Fayzulla Xoʻjayev haqida shunday yozgan edi: Buxoroga kelganimdan keyin meni Fayzulla Xoʻjayev qiziqtirdi. Fayzulla Xoʻjayevning boshiga shunchalik koʻp oltin vaʼda qilingan ediki, dunyodagi biror bir bosh shunchalik yuqori narxlanmagan edi. Xoʻjayev 1937-yil. 9-iyulda Moskvada qamoqqa olindi. Unta Sovetlarga qarshi „Oʻng trotskiychi blok“ faoliyatiga qoʻshilganligi hamda „Milliy ittihad“ tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, „bosmachilik“ harakati va qoʻrboshilarni qoʻllab-quvvatlaganlik, Fitrat, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy va boshqa oʻzbek ziyolilariga gʻamxoʻrlik koʻrsatganlik kabi ayblar qoʻyildi va otishga hukm qilindi. Hukm Moskva atrofidagi Butovo qatlgohida ijro etilgan. 1965-yil 6-martda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi Xoʻjayevni aybsiz deb topdi va oqladi. Natijada 1967-yil 28-fevralda Oʻzbekiston Kompartiyasi MK va OʻzSSR Ministrlar Soveti „Fayzulla Xoʻjayev xotirasini abadiylashtirish toʻgʻrisida“ qaror qabul qilgan.

Oʻzbekistonda uning 100 yillik yubileyi nishonlandi (1996). Xoʻjayev asarlari va u haqidagi tadqiqotlar nashr etildi. „Buxoroning jin koʻchalari“ (Asqad Muxtor) qissasi, „Inqilob tongi“ (Komil Yashin) dramasi, „Men yashashni istayman“ (Nusratillo Naimov) roman-xronikasi va boshqa asarlar Xoʻjayev faoliyatiga bagʻishlangan. Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahridagi pedagogika kolleji, Buxoro shahridagi koʻcha, koʻplab shirkat xoʻjaliklari, maktab va mahallalar, Xoʻjayev nomi bilan ataladi.

Avgust Eyxgorn Fayzulla Xoʻjayev va oʻzbek xalq musiqa uning qoʻshiqlarini oʻrganar ekan, maqomlar haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldiradi.

“Shashmaqom”ni notaga toʻla toʻkis tushirish bosqichi esa, 1920-1924- yillarda mavjud boʻlib turgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) hukumati yillari bilan bogʻliq. BXSР hukumati rahbari Fayzulla Xoʻjayev tashabbusi va moddiy-maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlashi, Abdurauf Fitratning bevosita tashkilotchiligi asosida rus musiqashunosi V.A.Uspenskiy tomonidan “Shashmaqom” notaga tushirildi. “Shashmaqom”ni notaga tushirishda buxorolik musiqa sanʼati dargʻalaridan Ota Jalol Nosirov, Ota Gʻiyos Abdugʻaniyev kabilar ham faol ishtirok

etdilar. F.Xo‘jayev V.A.Uspenskiyning xizmatlarini oltin so‘m hisobida taqdirladi. 1924-yildan boshlab “Shashmaqom” o‘zbek musiqa madaniyatining oltin fondidan mustahkam o‘rin oldi.

“O‘zbekistonni qanday barpo etilganini bilish uchun qozilik hujjatlari, avliyo manoqiblari yoki muqaddas tarixlarga emas, albatta jadidlarning manbalariga qarayman. Biz Jadidlarni hech yo‘qday ko‘rsak, faqatgina tashqaridan majburan o‘zgartirish olib kelgan unsurlarning asarlari qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.To‘rayev F. Buxoro xalq musiqasi va mang‘it amirlari.Buxoro nashriyoti.2006 yil.
- 2.Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. “Pedagogicheskie vozmozhnosti ispolzovaniya detskix folklornyx pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov.” Vestnik nauki i obrazovaniya: 5-2.
- 3.Yunusov R. O‘zbek maqomlari. Toshkent.:“O‘zbekiston”, 2018.
- 4.Safarov O. Shashmaqom vatani ohanglari. Toshkent.:“Fan”, 2009.
- 5.Rajabov To‘xtasin Ibodovich Abdurauf Fitratning musiqiy-pedagogik qarashlari. Ta’limda istiqbolli izlanishlar Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. № 9 2024 Noyabr 179-184-bet
- 6.Uspenskiy V.A. Shashmakom. Shest muzikalnix poem. Moskva. 1924.
- 7.Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
- 8.Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O‘zbek Xalq Musiqa Merosda O‘quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 139-145.
- 9.Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
- 10.Rajabov T.I. Abdurauf Fitrat ijodi hamda O‘zbek klassik musiqasi. // Inter education & global study. 2024. №10 B.536-541.